

“KOB-500” BROILER JO‘JALARINING TURLI DAVRLARDA
SAQLANUVCHANLIK XUSUSIYATLARI

Joldasbaev B.A.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, tayanch doktoranti*

Annotatsiya: “Kobb-500” broiler jo‘jalarning yashovchanlik xususiyatlari, o‘ishi va rivojlanishi, bosh sonining saqlanuvchanlik xususiyatlari o‘rganildi va xulosalar berildi.

Kalit so‘z: “Kobb-500” broiler jo‘jalari, o‘ishi, rivojlanishi, saqlanuvchanlik.

Kirish

Broiler go’shti etishtirish — inkubatsiya davridan to go’sht uchun so‘yishgacha davom etadigan murakkab jarayon bo‘lib, bunda jo‘jalarning yuqori darajada saqlanuvchanligini ta’minlash nafaqat umumiy qabul qilingan chora-tadbirlarga, balki bir qarashda ahamiyatsiz bo‘lib ko‘ringan texnologik unsurlarga ham bog‘liqdir [1].

Broiler jo‘jalarining saqlanuvchanligini ta’minlash, avvalo, ularning immunitetini oshirishdan boshlanadi. Shuning uchun yosh jo‘jalarning salomatligini ta’minlash muhim hisoblanadi.

Jo‘ja nasliy (onalik) immunitetiga qo‘shimcha ravishda, hayotining birinchi kunidanoq yuqumli kasalliklarga va noqulay muhitga qarshi o‘zining himoya tizimini rivojlantirib boradi.

Bir kunlik jo‘jalar uchun saqlash shartlari bir xil bo‘lsa-da, go’sht yo‘nalishidagi broilerlar va tuxum yo‘nalishidagi tovuqlar uchun bu shartlar farqlanadi: broiler 42 kun, tuxum qiluvchi tovuq esa 16-18 oy yashaydi [2]. Broilerlar immun tizimi to‘liq shakllanmasdan ancha oldin so‘yishga yuboriladi, shuning uchun ularning saqlanuvchanligini ta’minlash maqsadida eng yaxshi sharoit yaratilishi va to‘laqonli ozuqa bilan ta’minlanishi kerak.

[3] manbasidagi tajriba ma’lumotlarida keltirilishicha, broiler jo‘jalarini go’sht uchun boqishda «Roxell» qafas tizimi uskunalaridan foydalanilganda saqlanuvchanlik darajasi ancha yuqori bo‘lib, bu ko‘rsatkich 0,6 foizga oshgan. Bu esa iqtisodiy nuqtayi nazardan parrandachilik fermasida «Roxell» uskunalaridan foydalanish samarali (rentabelligi 31,1%) ekanini isbotlaydi.

Tadqiqot uslubi va joyi. Ilmiy-tadqiqot ishimiz Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus



filialining tajriba kishik fermasida amalga oshirildi. Tajriba uchun bir kunlik broyler jo'jalar O'zbekiston Respublikasi Xorazm viloyati, Urganch tumanida joylashgan "Sunlight servis" xususiy korxonasidan (rahbari T.X.Ro'zmetov) olib kelindi. "Koob-500" krossi broyler jo'jalarining tirik vazni dinamikasi 37 kun davomida har kuni belgilangan bir vaqtda "Elektron tarozi SOF-40A" tarozisi yordamida o'lchab borildi va qayd etildi.

Tahlil va natijalar. Tajriba ishlarimizda «Kobb-500» broyler krosslari ustida olib borilgan tadqiqot natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Tajriba davomida saqlanuvchanlik xususiyatlari, %

O'sish davri, kun	Guruh											
	I			II			III			IV		
	Saqlanishi											
	n	qolgan	%	n	qolgan	%	n	qolgan	%	n	qolgan	%
7	50	50	100	50	50	100	50	50	100	50	50	100
14	50	50	100	50	50	100	50	50	100	50	50	100
21	50	50	100	50	50	100	50	50	100	50	50	100
28	50	50	100	50	50	100	50	49	98	50	49	98
37	50	50	100	50	50	100	50	49	98	50	48	96

Ushbu 1- jadvalda keltirilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tajriba boshidan 21 kunlik davrigacha barcha guruhlarda saqlanuvchanlik darajasi 100% bo'lib, 21–28 kunlik davrida 4-guruhda 1 bosh (2%) jo'ja nobud bo'lgan.

Tajriba oxiriga kelib esa, ya'ni 37-kunida, 3-guruhda bir bosh (2%),

4-guruhda 1 bosh (2%) jo'ja nobud bo'lgan bo'lsa, 4-guruh jo'jalarining saqlanuvchanlik ko'rsatkichi 96% ga teng bo'ldi. 1 va 2-guruh jo'jalari orasida esa saqlanuvchanlik tajriba oxirigacha 100% ni tashkil qildi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, I va II guruhlardagi parrandalarning saqlanuvchanlik ko'rsatkichlari III va IV guruhlarga nisbatan mos ravishda 2.0% va 4.0% ga yuqori bo'lganligi aniqlandi. Bu esa qo'llanilgan ipak qurti g'umbagi omillarining I va II guruhlarda parrandalar salomatligi va yashovchanligini ta'minlashda yuqori samaradorlikka ega ekanligini isbotlaydi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Манукян В.А. Влияние питательности комбикормов на мясные качества курочек и петушков кросса «АК 839». // Ж. Птица и птицепродукты. – Москва, 2005. – № 4. – С. 29-30.
2. Тўлаганова З.К., Ахмедова З.Р. Паррандаларнинг гўшт маҳсулдорлигига биологик фаол моддаларнинг таъсири. Chorvachilik va naslchilik ishi jurnali. – Тошкент, 2023. – № 3. – Б. 28-31.
3. Ermatov Yu.A., Alimbayev B.K. Tajribadagi Lomann braun-klassik va Lomann-sendi jo'jalarining o'sishi va rivojlanishi. // Chorvachilik va naslchilik ishi jurnali. – Toshkent, 2022. – № 4 (26). – Б. 23-24.

